

BADIY MATNDAGI TARIXIY OMONIMLAR XUSUSIDA

Rajabov Feruz Umarqulovich

QarMII akademik litseyi o'qituvchisi, f.f.f.d(PhD)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada davriy omonimiya va uning turlaridan biri tarixiy omonim so'zlarning badiiy matndagi o'rni, ijodkorlarning ulardan foydalanishdagi maqsadi xususida bahs boradi. Tarixiy asarlarda qo'llangan omonimlarning lingvistik xususiyatlari aniqlangan.*

Kalit so'zlar: *omonim, tarixiy omonim, davriy omonimiya, barqaror omonimlar.*

Ma'lumki, omonimiya bir til doirasida belgilanadi va til taraqqiyotining ma'lum bosqichlarida qo'llangan so'zlar o'zaro omonim hisoblanadi, ya'ni omonim deb hisoblanayotgan so'z ma'lum bir taraqqiyot bosqichida, bir xil davrda iste'molda bo'lishi kerak. Shunga ko'ra omonimlar ham davrga nisbatan, ya'ni davriy omonimiya: tarixiy omonim so'zlar, barqaror omonim so'zlar, zamonaviy omonim so'zlar va boshqalarga bo'lish mumkin.

Ma'lum bir davrda ishlatilib, shu davrda omonim bo'lgan birliklar davriy omonimiya deyiladi. Bunday omonimlarga tarixiy omonim so'zlarni keltirish mumkin. Tarixiy omonim so'zlar ma'lum davr manbalarini lingvistik tahlili natijasida namoyon bo'ladi va ularni shu tahlil doirasida o'rganish mumkin. Masalan, qadimgi turkiy manbalarda omonim sifatida turk I "kuchli, qudratli"; "samimiy"; turk II "qabilalarning etnik uyushmasi" ma'nolarida keltirilgan yoki tug' omonim asos sifatida qayd etilgan: tug' I "xon huzurida chalinadigan nog'ora va dovul"; tug' II "bayroq".

Tilshunoslikka oid manbalarga qaraydigan bo'lsak, ko'plab tadqiqot ishlarda, ayniqsa, leksikaga oid izlanishlarda omonimlarga diqqat qaratilgan va obyekt sifatida tanlangan materilga ko'ra omonimlar tahlilga tortilgan. Masalan, Z.Xolmonovanning "Boburnoma" leksikasi tadqiqotida tarixiy omonim so'zlar tahlili aniq yoritib berilgan. "Boburnoma" asaridagi omonimlarni turkum jihatdan quyidagicha ajratilgan: 1. Bir turkumga mansub so'zlar o'rtasidagi omonimlik: a) omonimlik ot turkumiga mansub so'zlar orasida kuzatiladi: ko'hpoya I "ulug'": ...ikki ko'hpoyadur, Sayid Yusuf majam aning ulug'i edi... (130); ko'hpoya II "ma'muriy - hududiy birlik": Isfara viloyati to'rt bo'luk ko'hpoyadur (61); ko'hpoya III geografik hudud": Yana bir Isfaradur; ko'hpoyada voqi' bo'lubtur (61); boshliq I "bosh kiyimi"; boshliq II "guruh yetakchisi"; naqsh I "kuy, ashula" ..ul jumladin bir naqshi bor, nuhranga mavsum (242); naqsh II "buyum va binolardagi naqsh";

b) omonimlik fe'l turkumiga mansub so'zlar orasida kuzatiladi: Rioyat qilmoq I "rioyat"- a. "rioya, e'tiborga olish" so'zidan, "hurmatlamoq" ma'nosida kelgan: Otam Umarshayx mirzo rioyat qilib edi va hanuz rioyat qilmoqta edi (111). Rioyat qilmoq II "amal qilmoq": Naqohat ayyomini obdon rioyat qila olmādim, uzuldum (111).

2. Turli turkum so'zlari o'rtasidagi omonimlik: pul I "ko'prik": Qo'rg'ong'a yetib, shotu qo'yub chiqib darvozani olib, puli ravon solilib,..(167); pul II "vaqt birligi": Yana har girini oltmish bo'lubturlar, har birini pul debturlarkim, bir kecha-kunduz uch ming olti yuz pul bo'lg'ay (448); pul III "bir to'da,bir talay, allaqancha": ...pul tir yig'ilib turubtur, o'bdon-o'bdon yigitlardek...

"Boburnoma"dagi omonimlar genetik xususiyatiga ko'ra quyidagicha: 1. Omonimlik bir tilga mansub so'zlar o'rtasida sodir bo'lgan, turkiycha: to'ra I "qoida, qonun, intizom, odat": hazm va ehtiyotni mar'iy tutub, to'ra va siyoqkim, tartib qililib edi; to'ra II odam bo'yi baravar keladigan qalqon: Tufakandozlar bu aroba va to'ralarning keynida turub, tufak otqaylar (334/192,I); to'ra III "qism, a'zo": ...Husayn oilig'onda qisqaliq qilg'anlarning kayfiyatini ko'rub, to'ra-muchalaridin hurattuk (306). Ish I "shaxsning muayyan faoliyati" Ish ham qila olmadi; ish II "kuy": Bir navbat Badiiuzzamon mirzoning suhbatida bir ishni naydin xo'b chiqarur, Qul Muhammad g'ijjakta ul ishni chiqara olmas...

2. Omonimlik turli tilga oid so'zlar o'rtasida sodir bo'lgan: arabcha so'z I; hindcha so'z II: roy I. "fikir, qarash": Mirzo royi bila amal qilmas edi; roy II "Hind podshohlari unvoni": Agarchi kichik-kirim roy va roja tog' va jangalda xeli bar edilar, vale mu'tabar va mustaqil bular edilar.

"Boburnoma"da qo'llangan omonimlarning hozirgi o'zbek tiliga munosabatini tahlilida omonim so'zlarning har ikkitasi (uchtasi) hozirgi o'zbek tiliga yetib kelmagan: vofir I "ko'p, mo'l": Oshlig'i vofir, mevasi farovon (60); vofir II "aruz vaznlaridan biri". Savod, pul, sur, ko'hpoya, tak'ya, taassub, tavr, to'qa, ud, shar'iy, qonun so'zlari omonimligi ham hozirda uchramaydi, deb xulosalangan. "Zafarnoma" asarining o'zbekcha tarjimasidagi omonimlarini o'rgangan A.Primov asar tilida bir turkum doirasida omonim bo'ladigan omoleksemalar ko'pchilikni tashkil qiladi, degan xulosaga keladi. Asar tilida o'ldi shaklidagi ikkita so'z omonim bo'lib kelgan. Birinchisi, bo'lmoq fe'lining eski o'zbek tilidagi varianti: Aduv erdilar bir-biriga mudom, Xarob o'ldi ul mamlakatlar tamom; ikkinchisi, "o'lmoq, vafot etmoq" ma'nosidagi fe'l: Va yayog'lari ot ayog'ida qolib, ko'b kishi o'ldi. Pora omonimi: I – "Bo'lak, parcha, kesilgan": Oxir zafarpanoh cheriki alarg'a zafar bila pora qildilar; II – "to'da, to'p, guruh": Va Musabekning bir pora kishisi anda erdi, ani tutub berkittilar.

“Zafarnoma” asarining eski o‘zbek adabiy tilidagi tarjimasi leksikasidagi omonim so‘zlarni tahlil qilish natijasida tilimiz taraqqiyotining turli davrlarida eroniy, arab va boshqa tillar bilan o‘zaro aloqada bo‘lgani natijasida, shuningdek, tilning ichki rivojlanish qonuniyatlari asosida omonimlar yuzaga kelgani va bunday so‘zlar tilning uslubiy-estetik imkoniyatlarini namoyon qilishda faol ishtirok etgani haqida xulosaga kelingan.

Demak, bu so‘zlar ma’lum bir davrdagina ishlatilib, o‘sha davr manbalarida o‘zining omonimik holatini saqlab qolgan. Bugungi kunda ular omonim emas. Shuning uchun bunday so‘zlarni tarixiy omonim so‘zlardir. Bunday omonimlarni aniqlash va to‘plash, leksikografik talqinini qilish tarixiy asarlar tilini o‘rganish hamda ularning badiiy matndagi uslubiy vazifalarini aniqlashga, ijodkorning lug‘at boyligini aniqlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xolmonova Z. “Boburnoma” leksikasi. Filol. fan. d-ri...diss. -Toshkent, 2009.
2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tili omonimlarining izohli lug‘ati. Toshkent: “O‘qituvchi”. 1984.
3. Primov A. Sharafuddin ali yazdiyning «Zafarnoma» asarining eski o‘zbek tiliga tarjimasidagi omonim so‘zlar haqida / Xorazm ma‘mun akademiyasi axborotnomasi, 2017. № 3, -B. 79-81